



O'ZBEKISTONING YETUK SHOIRLARIDAN BIRI OZOD SHARAFIDDINOVNING ADABIYOTSHUNOSLIK FAOLIYATIGA DOIR ADABIY KISHILIGI

Marupboyev Devkor G'ayrat o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Urgut filiali
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-kurs talabasi
marupboyevdevkor07@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17975472>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-dekabr 2025 yil
Ma'qullandi: 14-dekabr 2025 yil
Nashr qilindi: 18-dekabr 2025 yil

KEYWORDS

Adabiyotshunos, adabiy tanqid,
yozuvchilik mahorati, tarjima,
mustabid tuzumi, tazyiq,
madaniy meros, qalami o'tkir
yozuvchi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Ozod Sharafiddinovning Adabiyotshunoslik faoliyatiga oid qarashlar, tanqidiy qarashlari, tarjimalari, ilmiy mulohazalari xususida va davlat arbobi sifatida tutgan o'rni haqida so'z boradi. Ushbu maqola Adabiyotshunos, olim, tarjimon, adabiy tanqidchi Ozod Sharafiddinovning ijodiy faoliyatini o'rganuvchi o'quvchiga chuqurroq tushuncha berishni maqsad qilinadi.

Ozod Sharafiddinovning tadqiqotlari adabiyotni milliy g'oyalar va adabiy qonuniyatlar asosida tahlil qilishga bag'ishlangan. "Adabiy etyudlar" (1968) kitobida ijodkor shaxsi va uning badiiy asardagi o'rni masalalari talqin qilingan. "Yalovbardorlar" (1974), "Iste'dod jilolari" (1976) to'plamlariga kiritilgan ilmiy maqolalari adabiy ijoddagi an'analar, mumtoz adabiyotni o'rganish vositalari va jahon adabiyotini o'rganish muammolari haqida. Sharafiddinov o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida milliy va jahon adabiyoti an'analarini uyg'un qabul qilish tamoyillarini boshlab berdi. Ozod Sharafiddinov O'zbekistonda tanqidchilik va adabiyotshunoslikning yetakchi vakillaridan biri sifatida tanilgan. Uning adabiy tanqid sohasidagi ishlari o'zbek adabiyoti va madaniyatining rivojlanishida katta o'rin tutadi. Sharafiddinov nafaqat o'z zamonidagi adabiy jarayonlarni tahlil qilish, balki yangi iste'dodlarni kashf etish va milliy adabiyotni boyitish uchun ulkan hissalar qo'shgan. U o'zbek adabiy tanqidchiligiga yangicha qarash va tahlil usullarini olib kirdi. Adabiyotning xalq hayoti va ma'naviyatini aks ettiruvchi kuch ekanligini ta'kidladi. Tanqidda faqat asarning kamchiliklarini izlash emas, balki uning yutuqlari, badiiy qiymatini aniqlashga alohida e'tibor qaratdi. Sharafiddinov adabiy asarni baholashda adolatli va xolis yondashuvni asosiy mezon deb bilgan. Muallif bir intervyusida: "Agar yozuvchining yozgan kitobidan birov bahra olmasa, birov ma'ni topmasa, birovning aqliga aql qo'shilmasa, yoki bir muhabbatidan birov ilhom olib, ko'nglida bir yorug'lik paydo bo'lmasa, unaqa kitobni, she'rni faqat ikki nusxada o'zi-yu yaxshi ko'rgani uchun nashr qilsa bo'ladi", deb aytar ekan, adabiyotga shunchaki yozilgan asar emas, balki yurakning tub-tubiga yetib boradigan nodir manbaalar lozim ekanligini ta'kidlab o'tadi. Lekin tarjima Ozod Sharafiddinov ijodida hech qachon tirikchilik manbaiga aylanmagan. Ijodkorning oldida doim aniq, katta maqsad bor edi: o'zbek xalqini jahon madaniyati bilan tanishtirish, undan bahramand qilish,

dunyoqarashini kengaytirish va rivojlantirish. Tarjimalar orqali o'zbek kitobxonini jahon adabiyoti bilan tanishtirish vazifasini ko'zlash asosiy muddaolardan biri edi. Kitobxonlarga ma'lumki, "Sarob" romani tanqidchilikda ko'pgina munozaralarga sabab bo'ldi. Ayrim adabiyotshunoslar asarni to'la va to'g'ri baholay olmadilar. Ular romanning o'ziga xosligini, uning g'oyaviy-badiiy Jihatlarini qandaydir "quyma qolip"lar bilan o'lchab ko'rishdi va oqibatda yozuvchi oldiga noto'g'ri talablar ham qo'yishdi. Munaqqid A.Qahhorning satiric iste'dodi va uning evolyutsiyasini tadqiq etar ekan, adib asarlarini baholashda ham jahon adabiy-estetik tafakkur me'zonlarini asosiy dasturulamal qilib oladi. "Yozuvchi ijodiga baho berganda faqat nimani aks ettirayotganini asos qilib olsagu, boshqa tomonlarini hisobga olmasak, noobyektiv, birtomonlama yo'lga kirib ketish oson. Yozuvchi ijodining qiymatini belgila ydigan eng muhim narsa uning aks ettirayotgan hodisalarga munosabatidir", - deydi olim. "Iste'dod jilolari"ning "Sarob" romaniga nisbatan yana bir jihati bor. "Sarob"- ko'p qirrali roman. U ayni paytda egoistik talant va uning fojiali taqdiri haqidagi asar ham bo'lib, A.Qahhorning muhim adabiy-estetik qarashlarini ham o'zida mujassamlashtirgandir. Afsuski, romanning bu jihati adabiyotshunoslar e'tiboridan chetda qolib ketar edi. A.Qahhor Saidiydagi durustgina talantining qurboni bo'lishini realistik lavhalarda aks ettirar ekan, u orqali go'yo "Gap faqat talantda emas balki talantning maqsad yo'nalishidadir. Talant xalqqa bag'ishlanishi, eng yuksak va oliyanob g'oyalarning tantanasi uchun xizmat qilishi kerak", degan ezgu bir haqiqatdan bizni ogoh qilganday bo'ladi. Bunday hayotiy g'oyalar bugun ham dolzarbligini yo'qotmaydi. Aslida, adib asarlariga baho berish va ularni tadqiq etishda tarixiy sharoitni e'tiborga olishimiz va sobiq sho'ro davrida yashab, ijod qilgan boshqa san'atkorlar kabi Qodiriy, Cho'lpon va Qahhorlar ham butunlay erkin bo'lmaganini unutib bo'lmaydi. Bu jihatdan Ozod Sharafiddinovning Cho'lpon ijodini o'rganish borasidagi fikrlari asosli: "Muayyan zamon, muayyan jamiyatda yashagan shoir, tabiiyki, bu jamiyatdan tashqariga chiqib keta olgan emas. Cho'lponga ob'yektiv yondoshish, uning shaxsiyatini, ijodini xolisona baholash uni mutlaqo kamsitmaydi, Ustozlar uchun pedagoglar.org 66-son 1 -to'plam Yanvar 2025 Sahifa: 265 balki bizning yuraklarga yaqinroq qiladi. Cho'lponning badiiy ijodidagi yoxud adabiytanqidiy maqolalar idagi hukmron mafkura g'oyalarga yon berilgan o'rinlarni ko'rganda, uning nomiga malomat toshlarini otishga shoshilmaslik kerak. Bil'aks, uni tushunmoqqa harakat qilaylik. Bu mulohazalar faqat Cho'lponga emas, balki Oybek, G'.G'ulom, H.Olimjon, A.Qahhor, Shayxzoda, Mirtemir kabi ko'p yillar mobaynida adabiyotimizning chinorlari hisoblanib kelgan, keyingi yillarda esa o'rinli-o'rinsiz ta'na-dashnomlarga ro'para kelayotgan ijodkorlarga ham taalluqli." Ozod Sharafiddinov ijodi va shaxsiga baho berishda ham ana shu sharoit va holatlarni nazardan qochirmaslik lozim. U kishi ham partiyani ulug'lovchi fikrlar bildirgan yoxud Mayakovskiy kabi proletariat sinfi va revolyutsiyani madh etuvchi asarlarini yuqori baholaganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Lekin bu o'tkinchi g'oya-qarashlar mash'um sovet tuzumi siyosati va hukmron mafkurasi bilan bog'liq ekanligi endilikda barchaga ayon bo'lmoqda. Ozod Sharafiddinovning zabardast adabiyotshunos alloma va mohir tarjimon sifatidagi rang-barang ijodiyoti qanchalar e'tiborga loyiq bo'lsa, u kishining muharrirlik va ustoz-murabbiylik faoliyati ham shu qadar e'zoz-ehtiroimga munosibdir. Olimning bu faoliyati ham alohida tadqiqotlarga mavzu bo'lishi shubhasizdir.

Ozod -"Kishi ismiga tortadi degan ta'bir Sharafiddinov O'zbekiston va o'zbek adabiyotining XX asr tarixida chinakamiga o'z shaxsi, o'z dunyoqarashi, o'z e'tiqodi, o'z iste'dodi, o'z imkoniyatlari ozodligini bir butun takrorlanmas hodisa deb bilgan, bu yuksak

qadriyatlar taqozo etadigan mashaqqatlar yukiga yelkasini og'rinmay tutgan, bir zum el nazaridan chetda emasligini his etib yashagan allomalardan." [1-3]

Ulug' adiblar badiiy asar tiliga va undagi har bir so'z-iboraga alohida e'tibor bilan qarashgan. Bu qutlug' adabiy-estetik an'analar zamondosh adiblar va tanqidchi-adabiyotshunoslar tomonidan ijodiy davom ettirilayotgani ham so'z san'ati rivojining muhim omilidir. Chunki so'z eng avvalo fikr tuyg'u va ijoddir. Buyuk adabiyotshunos O.Sharafiddinov Abdulla Qahhor ijodi va til mahoratining shu jihatlariga e'tibor qaratadi: so'z san'ati va "original uslub uzoq izlanishlar, davomli mehnat samarasi o'laroq vujudga keladi. Uslub yozuvchining butun ijodiga singib ketgan bo'ladi. Uni ijodning ruhi, har bir asardan anqib turadigan xushbo'y hid deyish mumkin. Yozuvchining hayotga munosabatidagi, xarakter yaratishdagi, tasviriy vositalaridagi, fikrlash yo'sinidagi, qo'ying-chi, hatto biografiyasi va shaxsiyatidagi o'ziga xosliklar hammasi birikib, uning uslubini vujudga keltiradi. Biroq uslub mana shunday murakkab hodisa bo'lsa ham, ijodning bir sohasi borki, unda uslub birinchi qarashdayoq ko'zga yarq etib tashlanib turadi. Bu yozuvchining tili. Tilda yozuvchining mahorati ham, estetik printsiplari ham, hayot ranglarini payqay olishi ham, nozik farqlarni his etish qobiliyati ham aniq ko'rinadi" [2-48].

XULOSA

Ozod Sharafiddinovning maqolalari o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida katta o'rin egallaydi. U o'z maqolalari orqali adabiy jarayonlarni tahlil qilish, yozuvchi va shoirlarning ijodini baholash, jahon adabiyoti bilan milliy adabiyotni qiyoslash kabi muhim masalalarga to'xtalgan. Sharafiddinovning maqolalari o'zining ilmiy asoslanganligi, badiiy tahlili va zamonaviyligi bilan ajralib turadi. XX asr yangi o'zbek adabiyotining mustabid adabiy siyosat tazyiqi va tahdidlari tufayli toptalgan tarixini tiklash qatag'on qilingan adiblar merosini xalqqa qaytarish yo'lidagi jonbozliklari ayni ilmiy-ijodiy jasoratning chin nomoyondasidir. Mustabid tuzum sharoitida bunday kurash va shijoatlar qanchalar qimmatga tushganligini ehtimol hozirgi yosh adabiyotshunoslar bilmas. Munaqqid "Tobutdan tovush" qasidasi haqidagi ilhom ila yozilgan maqolasi, mafkuraviy-siyosiy jihatdan she'rlar muallifalri E.Vohidov, A.Oripovlarga ustozlik qilganliklari uchun ma'no dashnomlariga uchradi. U muharrirlik qilgan "Tirik satrlar" to'plami, A.Qahhorning "Yoshlar bilan suhbat" kitobi qatag'onga uchradi: Cho'lpon she'riyati zamonaviy adabiy jarayon qator nazariy masalalarga oid ilmiy munozalarni adabiy anjumanlardagi dadil chiqishlari jiddiy "Siyosiy xatolik da ayblanib munaqqidning badnom etildi. Bu xil ketma-ketlik zarbalar Ozod Sharafiddinovning dilini qanchalar vayron qilgan. Agar mundoqroq odam bo'lganda edi bir-ikki zarbadan so'ng allaqachon adabiyot maydonidan qochib ketgan bo'lardi. Biroq Ozod Sharafiddinov tanqididagi mislsiz matonat, cheksiz hayotsevarlik xislati tufayli bu ko'rguliklarni yenga oldi, tanlagan yo'lidan qaytmay shijoat bilan ilmiy-ijodiy ishini davom ettiraverdi. Nihoyat, istiqlol kunlari keldi. Ozod Sharafiddinov singari zaxmatkashlar yelkasiga oftob tegdi. Uning yangi bosqichdagi ilk mashg'uloti o'ttiz yillik orzu-armoni Cho'lponni yuzaga chiqarishdan boshladi. "Kecha va kunduz" romani munaqqid so'zboshisi bilan qayta dunyo yuzini ko'rdi. Uning rahbarligida avval bir jildlik so'ng o'n jildlik asarlari nashrga tayyorlandi. "Adabiyot nadir" to'plami chop etildi. Cho'lpon ijodi tadqiqotiga bag'ishlangan ilk dissertatsiyalarga rahbarlik qildi. Cho'lpon adabiy lirosiga oid ko'plab maqolalar va ikkita risola yaratdi. Ayniqsa, "Cho'lponni angalash" asari ma'naviyat-madaniyat hayotimizda muhim hodisa bo'ldi. Bu bo'lsa mustabid tuzum sharoitida qadr topmagan benazir iste'dod XX asr she'riyatining yorqin yulduzi to'g'risidagi ijodiy ziyolilarning o'ziga xos qalb

nidosi, armon va afsus nadomatlarini ifodasidir. O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov hayotda ham, ijodda ham o'zining haqqoniy so'zi, iroda va matonati bilan yurtdoshlarimizga, avvalambor yoshlarimiz uchun ibrat maktabi yaratib qoldirdi. U o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida milliy va jahon adabiyoti ana'analarini uyg'un qabul qilish tamoyillarini boshlab berdi. O'z asarlarida o'zbek she'riyati, nasr va tanqidchiligining muhim muammolarini yoritdi. Olimning munnaqidlik faoliyatida istiqloq davri adabiyoti alohida o'rin tutadi. Bu vaqtda u milliy adabiyotni shakllantirish muammolari, o'zbek adabiyotshunosligi tanqidchiligi qayta qurish, jahon adabiyotining ilg'or an'analarini o'zlashtirish va tarjima san'atini yuksaltirish masalalarini keng tadqiq etdi. Olim ijodining cho'qqisi bo'lgan "Ijodni anglash baxti" asarida o'zbek adabiyotining jahon adabiy jarayonida tutgan o'rni va imiy ma'naviy o'zanlari tahlil etib berilgan. Ozod Sharafiddinov XX asr o'zbek adabiyoti tarixi o'quv dasturi va darsligi mualliflaridan sanaladi. Ozod Sharafiddinovning bir qancha asarlarida hayotiy haqiqatlar tanqid ostiga olingan bo'lib, barcha ko'tarilayotgan masalalar o'z yechimini topmasdan qolmagan desak, mubolag'a bo'lmaydi

Keyinchalik, 90-yillar o'rtalariga kelib u og'ir dardga chalindi. Ikki marta jarrohlik amaliyotini boshidan o'tqazdi. Oyog'idan ajraldi. O'sha og'ir damlarda uning holidan xabar olib unga har jihatdan dalda berib "Buyuk hizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi. Munaqqidning 70 yoshlik yubileyi munosabati bilan bir tarzda o'tgan ayniqsa hukumatimiz tashabbusi bilan "Jahon adabiyoti jurnalining tashkil etilishi va Ozod Sharafiddinovning bosh muharrir etib tayinlanishi, bu alloma faoliyatida yangi sarlavha ochdi.

Mustaqil yurtimizda birinchi marta 1997-yilda "Jahon adabiyoti" jurnali tashkil etildi. Dunyo badiiyatining eng yaxshi namunalarini o'zbek kitobxonlariga yetkazish mo'ljallangan va milliy adabiyotimiz tajribalarini jahon miqyosida ommalashtirishni ko'zda tutgan mazkur nashrning birinchi bosh muharriri sifatida adabiy jamoatchilik orasida katta mavqega ega bo'lgan olim Ozod Sharafiddinov tanlandi. Ezgu niyatlar bilan tashkil qilingan jurnal ilk sonlaridanoq o'z mushtariylarini topdi. Hozirgacha chop etilgan sonlarida dunyo adabiyotining turli janrlariga xos ko'plab namunalar ona tilimizda kitobxonlarga taqdim etildi. Ayni damlarda ham nashr jamoasi birinchi bosh muharrir, ustoz Ozod Sharafiddinov an'analarini davom ettirib, "Jahon adabiyoti" sahifalarida yetti iqlimning eng nodir so'z mo'jizalarini e'lon qilib kelmoqda.

Yetuk adabiyotshunos olim va tarjimon Ozod Sharafiddinov umrining oxirlarida og'ir xastalikni boshdan kechirdi. Taqdirning bu sinoviga ham mardona dosh berib, barcha qiyinchiliklarni yengib o'tdi. Qancha og'ir bo'lmasin, dolzarb mavzularda maqolalar yozib, adabiy jarayonda peshqadam ijodkorlardan bo'ldi. Ayniqsa, ustozning tarjimonlik borasidagi ishlari alohida tahsinga loyiq. Bir zum ham qalamini qo'ldan qo'ymay, turli janrlardagi ko'plab asarlarni o'zbekchalashtirdi. Og'ir bemorlikdagi bunday sermahsul, yuksak saviyadagi faoliyatni zamondoshlari yuksak matonat sifatida tan olishdi. Olimning hozirjavoblik, shavq va ilhom bilan yozilgan asarlari adabiyotshunoslikning o'ziga xos na'munalari bo'lib qoladi.

Katta ehtirom va ishonch xastaligiga qaramay bu alloma mislsiz g'ayrat shijoat bilan ijodiy va e'tibordan ruh olib keksaligiga qaramasdan ishga sho'ng'idi. Muharrir sifatida mohir tashkilotchi ekanligini namoyon etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Rasulov A. "Iste'dod va e'tiqod".-TOSHKENT.: Sharq. 2000.
- 2.Sharafiddinov O. "Abdulla Qahhor" – TOSHKENT.: Yosh gvardiya, 1988.

3. <https://akademiklar.uz/sharafiddinov-ozod>
4. http://mustaqillik.uz/pages/Ozod_Sharafiddinov
5. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/ozod-sharafiddinov-uch-maqola.html>
6. Sharafiddinov O. "Dovondagi o'ylar" T: Ma'naviyat, 2004.



INNOVATIVE
ACADEMY